

UVAYSIYNING “VOQEOTI MUHAMMAD ALIXON” ASARI

Sherali Qo‘ldashev

Tarix fanlari doktori

O‘zR FA Sharqshunoslik instituti yetakchi ilmiy xodimi

Аннотация. В статье дается источниковедческий анализ труда Увайси «Вокеати Мухаммад Алихан» по истории Коханского ханства. Работа не завершена, в ней в основном анализируются события, связанные с периодом правления Кокан-хана Мухаммада Али-хана (1822-1842). Источник содержит ценные сведения, связанные с историей Коканда, и подчеркивается его научная значимость.

Ключевые слова: Увайси, Мухаммад Алихан, Коканд, история Коканда, Восточный Туркестан, коканские купцы, анализ, заключение.

Abstract. This article provides a source analysis of Uvaisi's work "Voqeati Muhammad Alikhan" on the history of the Kokand Khanate. The work is unfinished, and mainly analyzes events related to the period of the Kokand Khan Muhammad Alikhan (1822-1842). The source contains valuable information related to the history of Kokand, and its scientific importance is emphasized.

Keywords: Uvaisi, Muhammad Alikhan, Kokand, history of Kokand, East Turkestan, Kokand merchants, analysis, conclusion.

Jahon otin Uvaysiyning (1780–1868) tarixiy dostoni hisoblangan “Voqeoti Muhammad Alixon” (“Muhammad Alixon voqealari”) asarini tugallanmagan manba deyish mumkin. Unda 1842-yilda yuz bergan voqealar ifodalangan bo‘lib, asosan, Qo‘qon xoni Muhammad Alixonning (1822 – 1842; hukmronlik davri 1822 – 1842) Sharqiy Turkistonga qilgan harbiy yurishlari haqidagi ma’lumotlarga urg‘u berilgan.

Asar voqealari Qo‘qon xoni Umarxon (1810 – 1822; hukmronlik davri 1810 – 1822) va uning rafiqasi Nodirabegim (1792 – 1842)larning to‘ng‘ich farzandi Muhammad Alixonning dunyoga kelishi bilan boshlangan. Asarda Umarxon vafotidan so‘ng Muhammad Alixonning Qo‘qon xonligi taxtiga o‘tirish hamda Qashqarga harbiy yurish uyushtirish xususida sarkardalari va vazirlari bilan maslahatlashuvi bayoni ham hikoya qilingan bo‘lib, sarkardalar qo‘shin soni ozligi tufayli bu yurishda dushman qo‘li baland kelishi mumkinligidan xonni ogohlantirishadi. Biroq Muhammad Alixon o‘z onasi Nodirabegimdan duo olib, o‘n lak (ming) qo‘shin bilan Marg‘ilon orqali Qashqarga yo‘lga tushadi. Dostonda Nodirabegim va Uvaysiyning Muhammad Alixon qo‘shinini Marg‘ilongacha kuzatib kelganlari, so‘ng Shohimardonga borib, Muhammad Alixonning g‘alaba bilan tirik qaytishini so‘rab diniy marosim o‘tkazganlari, ushbu yurishda Uvaysiyning ikki farzandi ham qatnashgani bayon qilinadi.

Ma'lumki, 1826-yilda Qo'qon xoni Muhammad Alixonning Sharqiy Turkistondagi Jahongirxo'ja qo'zg'oloniga aralashuvi hamda Xitoyning hukmron sulolasi bo'lgan manjur hukumati (1644-1911)ning Jahongirxo'ja avlodlarini Qo'qon xoniga topshirmaganligi ikki davlat munosabatlarining sovuqlashishiga sabab bo'lgan [9: 1181]. Manjurlar hukumati Jahongirxo'ja qo'zg'olonida faol ishtirok etgan hamda maxfiy ma'lumotlarni xonlikka yetkazib turgan qo'qonlik savdogarlarni aybdor sifatida ta'qibga olgan va ularning mol-mulkini musodara qilib, o'zlarini Qo'qonga quvib solgan[5: 129]. Shuningdek, ular qo'qonlik savdogarlarning Sharqiy Turkistonda savdo qilishlarini hamda choy, ipak, kumush yombu¹, nefrit, chinni idish kabi xitoy mollarini Qo'qon xonligiga olib o'tishlarini ta'qiqlab, chegara piketlarida askarlarni ko'paytirishgan. Natijada Muhammad Alixon xonlik aholisining choyga bo'lgan ehtiyojini qoplash maqsadida uni Xitoydan Rossiya orqali olib kelishni ko'zlab, Rossiya imperatoridan yordam so'rashga majbur bo'lgan. Shu bilan birga, bu elchilar imperatordan Manjurlar hukumatiga qarshi urush olib borish uchun bir necha to'plar va harbiy maslahatchilar yuborishni ham iltimos qilishgan[10: 87]. Ammo bu so'rov natijasiz tugagach, qaltis vaziyatda qolgan Muhammad Alixon 1830-yilda Jahongirxo'janing akasi Muhammad Yusufxo'jani Buxorodan chaqirtirib olib, toshkentlik, qo'qonlik, qashqarlik muhojirlardan iborat 40 ming qo'shin bilan Sharqiy Turkistonga yuborgan. Qo'zg'olon tufayli katta zarar ko'rgan Manjur hukumati moliyaviy qiyinchilik tufayli bu vaqtda Qo'qon xonligiga qarshi ochiqdan-ochiq urush harakatlarini boshlashga qodir emas edi[11:592v; 6: 95]. Shu bois ular Muhammad Alixon yuborgan elchilar bilan muzokara olib borishga va ikki davlat o'rtasida shartnoma imzolashga majbur bo'lishgan. Bu shartnomaning aniq sanasini tarixchilar turlicha ko'rsatganlar. Xususan, XIX asr muarrixlari CH.Valixanov, K.Ritter, A.Kuropatkin, I.Xalfinlar shartnoma sanasini 1831-yil deb ko'rsatishadi[2; 62; 12: 457; 7: 119; 13: 30]. Yuqoridagi muarrixlarning asarlaridan foydalangan B.Ahmedov va H.Bobobekovlar ham o'z tadqiqotlarida shu sanani takrorlaganlar[1; 273]. Ammo yuqorida keltirilgan mualliflar ishlarida ushbu shartnomaga oid hujjat keltirilmagan. V.S.Kuznetsov esa o'z tadqiqotida Xitoyning Ijtimoiy fanlar arxivida saqlanayotgan bir hujjatni asos qilib ko'rsatib, shartnomaning 1832-yilning 13-yanvarida tuzilganini qayd etadi [5: 129].

SH.Vohidov monografiyasida doston manbashunoslik nuqtai-nazaridan tadqiq qilingan[3: 154]. Akademik A.Qayumov esa Nodirabegimning yana bir taxallusi Maknuna ekanligi shu asar orqali ma'lum bo'lganini yozadi[8: 221]. Olima E.Ibrohimova Uvaysiy dostonlarining badiiy jihatlarini tadqiq etgan [4: 62].

Doston nasta'liq xatida yozilgan bo'lib, 1859-yilda Muhammad Yunusxon ismli kishi tomonidan Qo'qon qog'oziga bitilgan va har sahifaga 11 satrdan joylashtirilgan.

¹Ёмбү – Хитойдаги қўйма қумуш пул бўлиб, оғирлиги 50 лян (1,8 кг).

Qo'lyozma muqovasi ko'k rangda, tayaki va labakiylari charmdan. Kitobda uchta tamg'a mavjud. Ikkitasida "Abduqahhor sahnhofning amali, 1265" degan muhr bor. Muqovasi o'lchovi 27x16,7. 151 bayt. 7 varaq (233a – 246b).

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Аҳмедов Б. Марказий Осиё тарихий манбаларининг ўрта асрларда Ўрта Осиё билан Хитой ўртасидаги савдо, сиёсий ва маданий алоқаларни ўрганишдаги ўрни // Тарихдан сабоқлар. Тошкент, 1994. Б. 269-276.
2. Валиханов Ч.Ч. О состоянии Алтышара или шести восточных городов Китайской провинции Нан-Лу (Малой Бухарии) в 1858–1859 годах // Собр. соч. в пяти томах. – Алма-Ата: Гылым, 1985. – С. 202-239.
3. Воҳидов Ш. Қўқон хонлигида тарихнавислик (генезиси, функциялари, намояндалари, асарлари). Тошкент: Akademnashr, 2010. – 305б.
4. Иброҳимова Э. Увайсий дostonлари // Ўзбек тили ва адабиёти. 6-сон, 1960. Б. 50-76.
5. Кузнецов В.С. Экономическая политика цинского правительства в Синцзяне. Москва: Наука. 1973. – 174с.
6. Имом қори Қурбон Али (Чугучакий) валид Хўжа Холидбек Аягузий. Таварих Хамсаи шарки / Издана на основе рукописи, написанной в Чугучаке. – Казань, 1910. – 212 с.
7. Куропаткин А.Н. Кашгария (историко-географический очерк страны). – СПб.: Русское географическое общество, 1879. –436с.
8. Қажумов А.П. Қўқон адабий муҳити. – Тошкент, 1961. – 564 б.
9. Лю Чжисяо. Уйғур тарихи. – Пекин: Миллатлар нашриёти, 1987. – 1456 б (уйғур тилида).
10. *Материалы для истории завоевания Туркестанского края / Составил А. Г.Серебренников. Ташкент, 1847. – 191с.*
11. Муҳаммад Ҳакимхонтўра. Мунтахаб ат-таворих. Шарқ қўлёмалари маркази қўлёмаси, инв. № 592. в. 630 б;
12. Риттера К. Землеведение К.Риттера. География стран Азии, находящихся в непосредственных с Россией Восточный или Китайский Туркестан. В.В.Григорев. –СПб., 1869.–152 с.
13. Халфин Н.А. Политика России в Средней Азии. – М.: Наука, 1960. – 272 с.